

MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHANI RIVOJLANISHI

Quryozov Musharraf Jaloladdinovich

Xorazm viloyat Qo'shko'pir tuman Ixtisoslashtirilgan

maktabning tarix fani o'qituvchisi

[*barbarossa382@gmail.com*](mailto:barbarossa382@gmail.com)

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida agrar sohani rivojlanishi, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha viloyatlar shu bilan birga Xorazm viloyatida ham yangi mazmunga ega bo'lgan islohotlar boshlanganligi, agrar islohotlarning uchinchi yo'nalishi saqlanib qolgan davlat va jamoa xo'jaliklarida dehqonlarning ulushbay mulkiga o'tishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: agrar, tolerantlik, ulush (pay), agrobiznes, klaster, model, iqtisodiy.

ABSTRACT: This article contains information about the development of the agricultural sector in the Khorezm region during the years of independence, the beginning of reforms with a new meaning in all regions after the independence of Uzbekistan, as well as in the Khorezm region, the transition of peasants to shareholdings in state and collective farms where the third direction of agrarian reforms has been preserved. .

KEY WORDS: agrarian, tolerance, share, agribusiness, cluster, model, economic.

АННОТАЦИЯ: В данной статье содержится информация о развитии аграрного сектора Хорезмской области в годы независимости, начале реформ с новым смыслом во всех регионах после обретения независимости Узбекистана, а также в Хорезмской области, переходном периоде. крестьян в паи в совхозах и колхозах, где сохранилось третье направление аграрной реформы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: аграрный, толерантность, доля, агробизнес, кластер, модель, экономика.

KIRISH.

Mustaqillik har bir fuqaro uchun yuksak imkoniyatlar, xalqimizning milliy-ma'naviy jihatdan tiklanishi, qadriyat va an'analarning qadr topishi, millat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rnimizga ega bo'lishimizga, mustaqil iqtisodiy hayotga ilk pilapoya bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan har bir ongli inson hamjihatlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, tolerantlik, ahillik kabi yuksak insoniy fazilatlarga, milliy mintalitetimizga hurmat, an'ana va urf-odatlariga sadoqat, Vatan taqdiriga daxldorlik, mas'ullik, kelajakka e'tibor kabi yuksak fazilatlarni yurak-yuragiga singdirgan.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan har bir islohot, yangilanishlar, bunyodkorliklar xalqimizning farovonligi, yuksalishi, osoyishta hayotining manbayi bo'lib xizmat qildi. Xalqimiz mustaqiligini qo'lga kiritgan davrdan beri mana ancha yil o'tdi, shu muddat ichida mamlakatimiz ulkan bunyodkorlik maskaniga aylandi, jahon hamjamiyatida o'z o'rni, o'z so'zi bo'lgan davlat sifatida ko'plab mamlakatlar tomonidan tan olindi. E'tirof qilindi. O'zining rivojlanish dasturi, taraqqiyot modeli bilan ko'plar e'tiboriga tushdi. Qiyinchiliklar, mashaqatlar chig'irig'idan omon o'tdi. Bugun ana shu mashaqatlar, ko'zlangar harakatlar o'z natijasini bermoqda.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha viloyatlar shu bilan birga Xorazm viloyatida ham yangi mazmunga ega bo'lgan islohotlar boshlandi. Respublikada tub Agrar islohotlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlar qabul qilindi. Jumladan, „Yer to'g'risida“ (20.06.1990), „O'zbekistonda tadbirkorlik to'g'risida“ (15.02.1991), „Davlat tasarrufidan chikarish va xususiy lash-tirish to'g'risida“ (19.11.1991), „Ijara to'g'risida“ (19.11.1991), „Dehqon xo'jaligi to'g'risida“ (3.07.1992), „Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida“ (9.12.1992), „Yer solig'i

to'g'risida“ (6.05.1993) va boshqa qonunlar hamda hukumat qarorlari qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga yo'l ochdi. 1998-yil aprelda chiqilgan „Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida“, „Dehqon xo'jaligi to'g'risida“, „Fermer xo'jaligi to'g'risida“ qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilindi. Xorazm viloyatida mulkdorlar sinfini shakllantirish siyosatdagi muhim yo'nalishga aylandi. Xorazm viloyatida bozor tizimini yaratishga qaratilgan yangi davomida davlat va jamoa xo'jaliklari yerining bir qismi aholiga tomorqa tarzida foydalanish uchun berildi. Natijada O'zbekistonda 1996-yil aholining tomorqa xo'jaligida yer 640 ming gani tashkil etdi.

Yangi Agrar islohotlar ikkinchi yo'nalishi — bu qishloqni fermerlashtirish, ya'ni davlat va jamoa xo'jaliklari o'rniga dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etishdan iborat. Yerga davlat mulki saqlangani holda yer xo'jalik yuritish uchun merosga o'tish sharti bilan dehqonlarga berildi. 1996-yil jami 19,5 ming dehqon va fermer xo'jaligi ishladi.

Agrar islohotlarning uchinchi yo'nalishi saqlanib qolgan davlat va jamoa xo'jaliklarida dehqonlarning ulushbay mulkiga o'tishdan iborat bo'ldi. Xo'jaliklardagi mol-mulk pulga chaqilib, u dehqonlarga ulush (pay) qilib berildi. Dehqonlar umumiy mulkdagi ulushiga qarab haq oladigan bo'ldilar. Agrar islohotlar O'zbekistonning xususiyatini hisobga olgan holda yangi mulkchilik va bozorga mos xo'jalik usullarini bunyod etish yo'nalishida bormoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Mustaqillik yillaridan keyin qo'yilgan maqsad va chora-tadbirlarga e'tibozrimizni qaratsak:

Xorazm viloyatida birinchi navbatda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini joriy etish, ilg'or tajriba va fan yutuqlarini, zamonaviy resurs tejovchi va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etishni nazarda tutuvchi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

– qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotishda zamonaviy kooperatsiya munosabatlarini kengaytirish orqali qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati zanjiri yaratilishini rag‘batlantirish;

– agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;

– agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligiga, hosildorligi past yerlar unumdorligini oshirishga, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga ko‘maklashadigan qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;

– viloyatda keng ko‘lamli zamonaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish va sifatli qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rag‘batlantirish;

– qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini tayyorlash, foydalanish va eksport qilishning zamonaviy tizimini shakllantirish, mahalliy va xorijiy seleksiya navlari, shu jumladan biotexnologik navlarning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish va rivojlantirish;

– o‘simliklarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, zararkunandalar va begona o‘tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

XULOSA.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki viloyatda yaratilayotgan mahsulotlar ko‘paytirish va yangi navlarini yaratish orqali juda katta natijalarga erishish mumkin. Viloyatning tabiiy sharoiti geografik o‘rni jihatidan qulay bo‘lgan hududlarda mahalliy va xorijiy davlatlarda uchraydigan o‘sadigan o‘simliklardan bu hududlarga olib kelgan

holda foydalanilsa juda katta foyda va daromad keltiradi. Shuningdek viloyatda agrar sohaning eksport salohiyati ham yaxshilanadi. Buning natijasida nafaqat Xorazmda balki, butun respublikamizda agrar sohaning rivojiga beqiyos hissa qo'shgan bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. "Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi" A.M.Sodiqov. Sh.X.Nazarov. E.T.Yoqubova. D.A.Junaydullayev. X.M.Saidaxmedov. A.J.Adizov. N.N.Safarova. N.B.Qurbanboyeva. R.R.Abdullayev. Sh.X.Otaboyev. B.S.Eshimov. Sh.Qurbonov. Toshkent-2015.
2. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. "O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi" O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. Toshkent-2010.
3. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari. 2010-yil
4. <https://uz.approby.com/rutin-qoshimchalarning-foydalari/> internet sayti